

Kuliyeva Dilshoda Alijon qizi
Namangan davlat universiteti
Fakultetlararo chet tillar kafedrası o'qituvchisi, PhD
kulievadilshoda98@gmail.com

QUMAN TOPISHMOQLARIDAGI TURKIY XOS SO'ZLARNING INGLIZCHA TARJIMALARI

Annotatsiya : Ushbu maqolada realiyalarni tarjima qilish bilan bog'liq masalalar quman topishmoqlarining inglizcha tarjimalari orqali ko'rsatib berilgan. Topishmoqlar tarkibida uchraydigan milliy turkiy so'zlarni tarjima qilishda qanday usullardan foydalanish kerakligi to'g'risida batafsil fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: realiya; mentalitet; xos so'zlar; tent; jiyak.

Кулиева Дилшода Алиджонкизи
Наманганский государственный университет
Преподаватель кафедры иностранных языков факультетов, PhD
kulievadilshoda98@gmail.com

ТУРЕЦКИЕ СПЕЦИФИЧЕСКИЕ СЛОВА В КУМАНСКИХ ЗАГАДОК И ИХ ПЕРЕВОД НА АНГЛИЙСКИЙ ЯЗЫК

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы, связанные с переводом реалий через английские переводы куманских загадок. Подробно обсуждается, какими методами следует пользоваться при переводе национальных турецких слов, встречающихся в составе загадок.

Ключевые слова: реалии; менталитет; специфические слова; тент; жияк.

Kuliyeva Dilshoda Alijon qizi
Namangan State University
Lecturer of the Department of Foreign Languages for Faculties, PhD
kulievadilshoda98@gmail.com

TURKIC SPECIFIC WORDS IN KUMAN RIDDLES AND THEIR ENGLISH TRANSLATIONS

Abstract: *This article addresses issues related to the translation of realia through the English translations of Kuman riddles. The methods to be used in translating national Turkic words that appear in the riddles are discussed in detail.*
Keywords: *realia; mentality; specific words; Chadir; jiyak.*

Kirish

Tarjima faqatgina bir tildagi matnni boshqa tilga o'girish emas, balki ana shu matndagi milliylik, yozuvchi his tuyg'ulari barcha barchasini boshqa tilda qayta yaratishdir. Demak, mutarjim faqatgina tilni emas, tarjima qilmoqchi bo'lgan asar tegishli bo'lgan millatning urf-odatları, hayot tarzi, argon-u jargonlaridan ham boxabar bo'lishi, tarjimaning muvaffaqiyatli chiqishiga olib keladi. Xalq og'zaki ijodi namunalaridan doston, ertak, maqol, matal, topishmoq kabi janrlar tarjimasi xususida so'z yuritganda, nisbatan ixcham shaklga ega bo'lgan maqollar va matallar, aforizmlar, frazeologizmlar tarjimasi xususida alohida to'xtamlar mavjud. Frazeologik birliklarning muvofiqliklarning asosiy turlari: 1) to'liq mos kelish (bunda berilgan maqol yoki iboraning tarjima qilinayotgan tilda aynan bir xil ma'no anglatadigan shakli mavjudligi); 2) qisman mos kelmaslik (ayrim holatlardagina mos kelishi); 3) umuman mos kelmaslik (tarjima qilinayotgan tilda umuman ekvivalenti yo'q bo'lishi va ko'p hollarda so'zma-so'z tarjima berilishi). Yuqorida berilgan fikrlar maqol, matal, aforizmlar tarjimasi xususida bo'lib, topishmoq tarjimasiga oid fikrlar topilmadi, ammo topishmoqlar ham o'zining ixcham shakli va she'riy ohangga egaligi yuzasidan maqollarga yaqin tursa-da, topishmoqlar tarjimasi maqollarniki bilan o'xshash emas deb hisoblaymiz.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Bizningcha topishmoqlar tarjimasida metaforik obyekt saqlanishi birinchi o'rinda ahamiyatlidir. Bundan tashqari ular tarkibida keluvchi xos so'zlar tarjimasi ham e'tiborimizni tortdi. Ingliz tili ham rus tili kabi turkiy tillar oilasiga mansub emas, shu sababdan tarjima jarayonida turli

qiyinchiliklar yuzaga kelishi tabiiy, albatta. Bundan tashqari ikki millatlarning milliy urf-odatlarini, hayot tarzi ham tubdan farq qiladi. Turkiy tillarga xos bo'lgan milliy so'zlar borki, ular ingliz tilida tarjima qilish jarayonida qo'shimcha izoh berilishini talab qiladi. Bunday xos so'zlarni realiya deb yuritiladi. Rus olimi L.N. Sobolevning fikriga ko'ra, "Realialar – maxsus xususiyatga ega bo'lgan, bir tilda va boshqa mamlakatlardagi tillar muhitida ekvivalentlari bo'lmagan milliy so'z va so'z birikmalardir[1.281]. S. Barxudarov realialarga bir qadar muxtasar ta'rif bergan: "Realialar – shunday so'zlarki, ular boshqa tilda gaplashuvchi xalqlarning tillarida, amaliy hayotlarida mavjud bo'lmagan leksik birliklar hisoblanadi"[2.95]. A.V.Fyodorov ushbu ta'rifga tanqidiy qaraydi. Uning fikricha, realialar faqat so'zlar emas, balki muayyan xalqning hayotidagi narsa, predmet va voqea-hodisalarning nomini ifodalovchi so'z va so'z birikmalar bo'lishi mumkin. Olim realialar haqida emas, balki real hayotda mavjud narsalarning nomlari haqida gapirishni tavsiya etadi[3.123]. "Ma'lumki, xalqlarning turmush taxliti, tirikchilik sharoitlari, urf-odat, rasm-rusm, irim-sirim, udumlarida juda katta farqlar borki, mavjud rosmnana lug'atlardan ularning nomlariga muqobil so'z topib bo'lmaydi. Basharti topilgan taqdirda ham, ulardan foydalanish qiyin, negaki, bunday so'zlar asarda tasvirlangan voqeaga o'zgacha milliy ma'no berishi mumkin... . Xullas, bir tilning lug'aviy boyligi bo'lgan bir narsani boshqa tillarga o'girganda, bir necha umumiy hollarni nazardan soqit qilganda, "realiy", ya'ni ag'darish mushkul bo'lgan, qo'shimcha izohtalab "xos so'zlar", milliy va mahalliy kolorit "komponent"lariga aylanib qoladi"[7.55].

Natijalar va Muhokama

Realialar tarjimalari haqida turkiyshunos olim Z.Sodiqov "Qadimgi turkiy realialar tarjimasi"[8.121] nomli monografiyasida atroflicha to'xtalgan. Uning fikriga ko'ra realialar so'zlar va holat

realiyalariga bo'linadi. Qo'lyozma topishmoqlarida biz so'z realiyalarini uchratamiz. Topishmoqlar ham xalq turmush tarzi bilan bevosita bog'liq janrligi tarjima jarayonida ham jiddiy e'tiborni talab qilishida ko'rinadi. Qo'lyozma topishmoqlarining ingliz tiliga faqatgina A.Titze tarjima qilganligi bois, ularni B.Jafarovning o'zbek tilidagi tabdillari asosida qiyosiy tahlil qilindi.

Realiyalar tarjimasida tarjimonlar odatda ikki xil qiyinchilikka duch kelishadi. 1. Tarjima qilinayotgan tilda xorijiy tilda berilgan realiyaga mos keladigan ekvivalentning mavjud emasligi 2. Asliyat tilidagi realiya ifodalagan ma'no, shu millatga xos milliy, tarixiy koloritni tarjima qilinayotgan tilda to'laligicha ifodalashning murakkabligi.

Shu nuqtai nazardan realiyalar tarjimasida quyidagi holatlar ko'zga tashlanadi:

1. Allaqachon internatsionallashtirilgan realiyalar. Tarjimonlar ularni o'z holicha tarjimasiz qoldirishi mumkin.

2. Faqat ma'lum bir regionga, ma'lum bir millatga xos bo'lgan realiyalar. Ular shu millatga xos bo'lgan tushunchalarnigina ifodalab keladiki, agar tarjimon bunday o'ziga xoslikni tushunmay, uni boshqa ma'no ifodalovchi so'z bilan o'girib qo'ysa, asarning milliy koloritiga, so'z ifodalagan ma'noning o'ziga xosligiga putur etkazgan bo'ladi. Bunday hollarda realiyalar tarjimada xorijiy tilda berilib matn ostida iqtibosda izohlanadi yoki ona tilida qabul qilingan shaklda keltirilib matn ichida yoki matn ostida izoh beriladi.

3. Ayrim tarjimonlar realiyalarni matn ichida o'zicha qoldirib, jumla konteksti ichida uning izohini keltirishadi[9.520].

Kodeks Kumanikus qo'lyozmasi tarkibidagi topishmoqlar matnida turkiy millatlarga xos bo'lgan so'zlar qo'llangan. Bunday so'zlar turkiy xalqlarning yashash tarzi, urf-odatlar boshqa millatlar hayot tarzidan farq qilishi va ayni paytda, aynan ularning o'ziga tegishli ekanligi bilan ajralib

turadi. Bir nechta quman topishmoqlarida ishlatilgan milliylikka oid soʻzlarni ingliz tilidagi tarjimalari eʼtiborni tortadi. Tarjimon bu holatlarda qanday yoʻl tutishi, matndagi milliylikni saqlab qola olishi esa uning bu millatlar tilinigina emas, balki urf-odatlarini, hayot tarzlarini umuman olganda madaniyati bilan qay darajada tanish ekanligini koʻrsatadi. Quyida esa bir nechta quman topishmoqlaridagi realiyalar tarjimasi muhokama qilinadi.

V (*filovʻin jagi filkip bolmaʻ, firma tonũ bugup b[ol]mas (ol j)*)topishmoq tarkibidagi *sirma tonum* jumlasini A.Titze tomonidan “*quilted fur coat*”, yaʼni qavilgan moʻyna deya tarjima qilingan. Aslida surma tonum birikmasining maʼnosi qanday? Turkcha tarjimasini yaratgan Gʻ.Guner “*Sirma elbisemi*”[5.675] – jiyakli libosim tarzida tarjima qilgan. *Jiyak-koʻylak yengi va shu kabi narsalarning chetiga tikiladigan ensiz tasma*[4.357]. *Sirma tonun* soʻzini A.Titze *quilted-qavilgan* deb tarjima qilgan, ammo bu soʻzlar, umuman, boshqa maʼno anglatadi. Jiyak soʻzi milliylikka xos boʻlgan soʻz boʻlib, odatda, turkiy xalqlar urf-odatlariga koʻra qadim-qadimdan toʻn, koʻylak etagi yoki yeng qismiga, old taraflariga bezak oʻrnida ishlatiladigan naqshli matodir. Jiyaklardagi naqshlar ham oʻziga xos boʻlib, koʻzni qamashtiradigan turfa xil bezaklarga ega boʻlgan. Demak, milliylikka oid soʻzni bu tarzda tarjima qilish orqali uning milliy xususiyati yoʻqolmoqda. *Qavilgan moʻyna* va *jiyakli libos* oʻzaro sinonim jumlar emas. Ingliz tilida jiyak soʻzini ribbon-soʻzi bilan berish mumkinmi? Bu soʻz ham umumturkiy soʻz boʻlgan jiyakning bizga maʼlum boʻlgan jihatlarini koʻrsata olmasada, qavs ichiga izoh berish orqali uni tushunarli qilish mumkin. Ribbon(it is a national cloth for putting the edge parts of shirts or other clothes for decoration) – shu tarzda berilganda, bizning fikrimizcha, ingliz oʻquvchisiga ham tushunarli boʻlardi.

Xulosa

Turkiy xalqlar va elatlarning turmush tarzi va milliyligini aks ettiruvchi soʻz va soʻz birikmalarini tarjima qilishda ushbu xalqlarning urf-odatlarini va madaniyatidan habardor boʻlish muhim ahamiyat kasb etadi. Aks holda bir millatning oʻziga xos taraflari tarjima jarayonida yoʻq boʻlib ketishi turgan gap. Bu esa asarning qadr-qimmatini oshirishga xizmat qilmaydi, albatta. Yuqorida koʻrgan misollarimiz ham bu fikrimizni tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Соболев Л.Н. Пособие по переводу с русского языка на французский. – Москва: Просвещение, 1952. – стр 281
2. Бархударов Л.С. Язык и перевода. – М.: Международные отношения, 1975. – стр 95.
3. Фёдоров А.В. Основы общей теории перевода. – Москва: Просвещение, 1983. – стр 123.
4. Мадвалиев.А. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. Тошкент. 2008. – с606
5. Argunşah M., Güner G. Codex Cumanicus. – Istanbul, 2015. – 1038 s.
6. Kuliyeva D. “Kodeks Kumanikus” topishmoqlari tarjimalarining qiyosiy tahlili va poetikasi” Fal.fan.dok. (PhD) diss. – Namangan, 2024.
7. Salomov Gʻ. Tarjima nazariyasiga kirish. X.Hamidovning lotin imlosida tayyorlagan 2-nashr. – Toshkent: Oʻqituvchi, 2010. – B. 54-55.
8. Sadikov. Qadimgi turkiy realiyalar tarjimasi. Vodiy media. - Namangan.: 2021. – B. 121.
9. Qurbonova N. S. MILLIY XOS SO ‘ZLAR YOKI REALIYALAR VA ULARNING TARJIMADA AKS ETISHI //Экономика и социум. – 2021. – №. 12-1 (91). – С. 519-526.